


## "TASDIQLAYMAN"



Navoiy viloyati hokimligi  
"Yagona buyurtmachi xizmati"  
Injining kompaniyasi direktori

A. Turdiyev

2022 yil

**Navbahor tumani markazidagi "Beshrabod" MFY hududida joylashgan "Bulvar"  
ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishlari ishchi  
loyahasini ishlab chiqishga**

### LOYIHA TOPSHIRIG'I

<b>Bosh buyurtmachi</b>	Navoiy viloyati hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati Injining kompaniyasi
<b>Loyihalash Uchun asos</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son qarori va tasdiqlangan manzilli dasturga asosan
<b>Qurilish turi</b>	To'la ta'mirlash
<b>Ob'jektning joylashgan o'rni</b>	<u>Navoiy viloyati Navbahor tumani markazi Beshrabot sh</u> (ob'jekt joylashgan viloyat, tuman)
<b>Loyihalashtirish bosqichi</b>	Ishchi loyiha 1 bosqichda
<b>Loyihalashning alohida sharoitlari</b>	<u>SHNQ 2.07.01-03* "ShAHARSOZLIK" ShNQ 2.05.02-07 Avtomobil yo'llari</u> (loyihani ishlab chiqish jarayonida foydalaniladigan QMQ, ShNQ adabiyotlar va qo'llanmalar)
<b>Shahar va yirik aholi punktlardan yo'lni o'tkazish sharti</b>	<u>ShNQ 2.07.01-03 "ShAHARSOZLIK", ShNQ 2.05.02-07</u> (qaysi QMQ, ShNQ qo'llanmalar talabi asosida)
<b>Joyning tavsifi</b>	<u>Tekislik, Aholi yashash punkti</u> (loyihalanayotgan hudud joylashuvi)
<b>Qurilish ishlarini boshlanishi</b>	2022 yil
<b>Qurilish ishlarini tugallash</b>	2022 yil
<b>Yo'l mintaqasida joylashgan mavjud muhandislik inshootlarining mavjudligi</b>	Yo'l mintaqasida joylashgan mavjud muxandislik tarmoqlarini ko'chirish ishlari tegishli tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Mavjud muxandislik inshootlari quduqlarini loyixaviy belgida qayta o'rnatish ishlari smeta xarajatlarida ko'zda tutilsin.
<b>Yo'lning asosiy ko'rsatkichlari</b>	Texnik toifasi - Tuman ahamiyatidagi magistral ko'cha  <u>Uzunligi</u> - 1,125km Harakat tasmasi kengligi - 3,5M Harakat tasmalari soni - 4 ta Xavfsizlik tasmasi kengligi - 2x0,5M Suv qochirish tizimi (Ikki tomonlama) - Lotok LK-6 Velo-piyodalar yo'lakasi kengligi - 2x2,5M Ko'kalamzor tasmasi - 2x2,0M Yo'l poyi kengligi - 25,2M
<b>Loyihalanayotgan yo'lda</b>	"Bulvar" ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish maqsadida yo'l to'shamasi konstruksiyasini me'yoriy talabga yetkazish, yuqori va pastki qatlam asfaltbeton qoplama qurish, PK0+00-PK3+10 oralig'ida yo'l o'qi bo'ylab 2RP (300x35) ajratuvchi temir beton bordyur o'rnatish, qoplama chetidan suv qochirish arig'i temir beton lotok (LK-6) larni o'rnatish, yo'lning piyodalar yo'lakchasi bilan kesishgan va

	<p>korxonalariga o'tish joylari lotok ustiga beton panjara o'rnatish, temir beton lotoklarning birikma yo'llar kesib o'tish joyiga diametri 325mm bo'lgan metal quvurlar o'rnatish, yo'lni ikki tomonida kengligi 2,5mdan velosiped va piyodalar harakati ajratilmagan beton qoplamali velo-piyodalar yo'lkasi qurish, mavjud tungi yoritish chiroqlari ustunini ko'chirib qayta o'rnatish, hamda piyodalar, velosiped va avtomobillar xavfsiz, qulay harakatlanishini ta'minlash maqsadida ko'chaga zamonaviy to'rt va besh qanotlik tungi yoritish chiroqlari va ustunlarini yangidan o'rnatish, mavjud elektr ta'minoti(KTP-343/63)kVning quvvatini 100kVga kuchaytirgan holda yoritish chiroqlari ulash, mavjud sun'iy inshootlarni ta'mirlash, yo'lning ta'mirlanayotgan qismiga birikuvchi yo'llar va kirish yo'llari qoplamasini ta'mirlash, yo'lda ta'mirlash ishlari yakunlanganidan so'ng transport vositalari va piyodalar harakatini tartibli tashkil qilish maqsadida yo'l belgilari va belgi chiziqlari bilan jihozlash ko'kalanzor tasmani sug'orish uchun tik quduq qazish, nasos va polietilen quvurlar o'rnatish ishlari loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilsin.</p>
<b>Sun'iy inshootlar</b>	Yo'lni kesib o'tuvchi mavjud sug'orish arig'i quvurlarini yangidan o'rnatish (mavjud o'lchamida uzaytirish) ishlari loyihada ko'zda tutilsin.
<b>Yo'l to'shamasi</b>	Mukammal (kapital) tipda
<b>Loyihalashtirish uchun boshlangich ma'lumotlar</b>	<p>Tegishki tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan yo'lning bosh rejasiga asosan avtomobil yo'lining uzunligi, ko'ndalang kesim chizmasi va tanlangan konstruksiyasiga asosan Loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilsin. Asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalarining sifati, olish manbalari, transportda tashish sharoitlari, temirbeton konstruksiyalari, detallar va maxsulotlarni tayyorlovchi zavod va bazalar, olib boruvchi va yuk tushirish yo'llari, yo'l qorishmalarini tayyorlovchi korxonalar omborlari va yo'l qurilish materiallari karberlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar, loyihaning smeta hujjatlarida hisobga olinishi kerak bo'lgan ustama xarajatlar, imtiyozlar miqdori, ish hajmi, qo'shimchalar yoki boshqa xarajatlarga koeffitsientlar buyurtmachi tomonidan tomonidan to'planib, loyihachi tashkilotga taqdim etiladi.</p>
<b>Yo'l va avtotransport xizmati bino va inshootlar joylashuv zaruriyati</b>	<u>ShNQ 2.07.01-03*</u> "ShAHARSOZLIK" talablari asosida
<b>Qurilishni resurslar bilan ta'minlash</b>	Mahalliy materiallardan foydalanishga ustuvorlik berilib ishchi loyihada aniqlanadi;
<b>Hududni tiklash va obodonlashtirish bo'yicha talablar</b>	Yerdan oqilona foydalanish ta'minlanishi lozim. Atrof-muhitni himoyalash, buzilgan yerlarni tiklash ishlari harajatlari ko'zda tutilishi kerak;
<b>Loyihalashda erishish zarur bo'lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar</b>	Yo'lning texnik-foydalanish ko'rsatkichlarini zaruriyat va me'yoriy talablardan kelib chiqib, takomillashtirish ko'zda tutilishi lozim (o'tkazish qobiliyati, harakat xavfsizligi, tashish tannarxini kamaytirish v.b.);
<b>Qurilishni tugatish va quvvatlarni ishga tushirishning mo'ljallanayotgan muddatlari</b>	Loyihalashtirilayotgan ishlar hajmidan va texnologik talablardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.
<b>Qurilishning alohida shart-sharoitlari</b>	Seysmiklik darajasi – QMQ 2.01.03-96 ga binoan qabul qilinadi.
<b>Topshirish – qabul qilish tartibi</b>	<p>Ishchi loyiha ushbu texnik topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Smetalar amaldagi narxlarda hisoblab chiqilishi lozim.</p> <p>Ishchi loyiha 3 nusxada va amaldagi standartlar bo'yicha rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.</p>

Navoiy viloyati hokimligi  
 "Yagona buyurtmachi xizmati" IK bo'limi boshlig'i



S.Rajabov